O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va barqarorligi uchun xizmat qiladi. O'zbekistonlik adib va davlat arboblarning asarlari bu borada nazariy va amaliy asoslarni belgilab beradi. Ushbu asarlar va fikrlar asosida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar xalqimizning ma'naviyatini boyitish va yosh avlodni milliy g'urur va qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – o'zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining ahamiyatini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishida "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga qator yechimini topmay kelayotgan muammolar ham borki, mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lam va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsad qilindi. Unga ko'ra ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish; madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviyaxloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;
- davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishida: mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish; milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va ma'naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta'sirini o'rganib borish;
- yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiyamaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;
- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish; ma'naviy tarbiya va ijti-



moiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish kabi qator vazifalar belgilab olindi.

Ma'lumki bugungi globallashuv, dunyo miqyosida kechayotgan g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar, millatlarning milliy qadriyatlarini izdan chiqarishga qaratilgan "ommaviy madaniyat" va yot g'oyalar ta'siri har qanday davlatdan ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqazo etadi.

O'z navbatida yuksak ma'naviy tarbiyaga ega bo'lgan shaxslargina vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiluvchi, el-yurt muammolari va yutuqlariga o'zini daxldor hisoblaydigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega fuqarolar bo'la oladi.

Ana shunday fuqarolik tarbiyasini ta'limning maktabgacha ta'lim bosqichidanoq amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, uning faoliyatini tubdan yangilash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni joriy qilish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr-dagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni¹ hamda "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 2-iyuldagi PF-98-son Farmonlari islohotlarning muhim huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad — har tomonlama yetuk barkamol avlod tarbiyasini maktabgacha ta'lim bosqichidanoq samarali amalga oshirishdan iborat.

Shu o'rinda yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi". Maktabgacha ta'limi tashkilotlarida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etishning alohida jihatlaridan biri shuki ayni bu davrda insonning asosiy ma'naviy dunyoqarashi shakllanadigan davr hisoblanadi. Shu sababli Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish bolalarni yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashda o'rni katta.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. U endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladi, hamma narsani bilib olgisi keladi, har narsani yangilik sifatida ko'rib, buni har tomonlama bilib olishga intiladi. Bunday davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ma'naviy tarbiya berish muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy tamoyillari insonparvarlik, uzliksizlik, ilmiylik, hayotiylik, yosh va bilim saviyasiga moslik tarzida tashkil etilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har haftaning juma kunlari tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish maqsadida ma'naviyat kunini o'tkazish va har oyning oxirgi juma kunlari pedagog xodimlarni ma'naviy dunyoqarashini boyitish maqsadida ma'naviyat soatlarini tashkil etish amalga oshiriladi. Shuningdek tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda bosh omil — kichik yoshidagi bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, sharqona muloqot odobi, milliy g'oyalarga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zbek san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni tarbiyalanuvchilar qalbiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga aylantirish uchun tarbiyachi quyidagi ish usullariga e'tibor berishi lozim:

- ta'lim tashkiloti, mas'ul shaxslar guruhning ruhiy holati, ya'ni har bir tarbiyalanuvchining shaxsi, faoliyati, qiziqish darajasiga;
- tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, tartib-intizomi qo'yingki, odob-axloq me'yorlariga bo'lgan munosabatiga;
- tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan munosabatiga (ijobiy yoki salbiy);
- ta'lim tashkiloti va guruhdagi ijtimoiy fikrga bo'ysunuvchanligiga;
- tarbiyalanuvchidagi o'zaro axloqiy muomala va munosabatlarga;
- ta'lim tashkilotida tashkil etilgan qonun-qoidalarga munosabat va unga amal qilishiga.

Yuqoridagilarga amal qilgan pedagog (tarbiyachi) o'z faoliyatini tashkil qilishda nimalarga e'tibor berishni tez anglab oladi.

Pedagogning bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish bilan harakatning birligi guruh tarbiyalanuvchilarini o'rganish va ulardagi ijobiy fazilatlarni takomillashtirib, salbiy xislatlarni yo'qotishga imkon beradi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan, ezgu fazilatlarga ega yoshlarni voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Quyidagi konsepsiya ta'lim tashkilotlarida yil davomida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar bo'yicha alohida oylarni nomlash (keyingi o'rinlarda – oylik) amaliyotini joriy etish orqali madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-amaliy va siyosiy tadbirlarning mazmuni, maqsadi, o'tkazish tartibi, muddatlari hamda ishtirokchilar tarkibini belgilaydi. (1-jadval).

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>



1-jadval. Ta'lim tashkilotlarida yil davomida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarini yangi boshqichga ko'tarish strategiyasi.

T/r	Oylar nomi	Ijro muddati (oylar kesimida)	Tadbirlar oyligi mazmuni	Guruhlar kesimida	O'tkaziladigan tadbirlar
1.	"Vatanparvarlik" oyligi	yanvar	Vatanparvalik tuyg'usini va Vatan oldidagi mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish maqsadida 14-yanvar – "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish; Vatanga ko'ksi qalqon - buyuk sarkardalar: Shiroq, To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi har bir buyuk sarkarda bobokalonlarimiz iqtiboslaridan misollar keltiriladi yoki ularning hayot yo'li haqidagi filmlar namoyishi etish; bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tanlov, sayohat, sport musobaqalarini o'tkazish.	kichik guruh	"Bizning armiya" mavzusida maketlar va rasmlar tanlovi.
				o'rta guruh	Tarixiy obidalar, madaniyat maskanlari va muzeylarga sayohatlar uyushtirish.
				katta va tayyorlov guruhlar	Milliy sport turlari va xalq o'yinlari: "Kurash", "Uloq", "Arqon tortish", "Chillak", "Besh tosh", "Oq terakmi, ko'k terak" kabi milliy xalq o'yinlari haqida ma'lumotlar beriladi va o'yinlar tashkil etiladi.
2.	"G'azalxonlik" oyligi	fevral	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan "Ikkinchi Renassansning ikki buyuk siymosi" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.	kichik guruh	"Ikki buyuk siymo" mavzusida davra suhbatlarini tashkil etish.
				o'rta guruh	Milliy va bolalar kutubxonalarga tashrif uyushtirish.
				katta va tayyorlov guruhlar	"Nazm va navo" g'azalxonlik kechasini tashkil etish.
3.	"Milliy qadriyatlar va ekologiya asrashi" oyligi	mart	O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya (Zulfiya Isroilova) tavallud kuniga bag'ishlab tadbirlar o'tkazish; 8-mart – "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish; 21-mart – "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan "Xush kelibsan, Navro'zim" turkum ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish; bolalar orasida ekologik ong va ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan "Mening birinchi niholim" videolavhalar tanlovi, "Tabiat in'omlari" nomli ijodiy ertak videolavhalar tanlovi, "Yashil maskanim" bolalar ekologik harakati tadbirlarini tashkil etish.	kichik guruh	"Xalqaro xotin-qizlar kuni" va "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan rasmlar tanlovini tashkil etish.
				o'rta guruh	Tarbiyalanuvchilarda milliy qadriyatlarimizga hurmatni kuchaytirish maqsadida varrak uchirish musobaqalari tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlar	"Xalqaro xotin-qizlar kuni" va "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan maktab saylini tashkil etish. "Milliy liboslar" haftaligini tashkil etish.



4.	“Ajdodlar merosini o‘rganish” oyligi	aprel	2-aprel – Butunjahon bolalar kitobi kuni munosabati bilan “Respublika bolalar kutubxonasiga” tashriflarni tashkil etish; bolalarni buyuk sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etish.	kichik guruh	“Temuriylar muzeyiga” va “Respublika kutubxonasiga” sayohatlar uyushtirish.
				o‘rta guruh	“Kitob-bizning do‘stimiz” mavzusida “Zukko bolajon” intellektual o‘yinini o‘tkazish. “Amir Temur- mening bobom” mavzusida rasmlar tanlovini tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlar	“Buyuk sarkarda izdoshlari bo‘lamiz!” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy bayram tadbirini tashkil etish.
5.	“Xotira - abadiy, inson qadri aziz” oyligi	may	9-may – “Xotira va qadrlash kuni”ga bag‘ishlab, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish; bolalarni buyuk ma‘rifatparvar jadidlar faoliyati bilan yaqindan tanishtirish va jadid adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish maqsadida “Jadid izdoshlari” loyihasini o‘tkazish.	kichik guruh	Tarbiyalanuvchilar bilan madaniyat maskanlari va muzeylarga sayohatlar uyushtirish, faxriylar xonadonlariga tashriflar tashkil etish.
				o‘rta guruh	“Xotira – abadiy, qadr – muqaddas” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy bayram tadbirini tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlar	“Jadid izdoshlari” loyihasi doirasida “Buyuk ma‘rifatparvar allomalar” mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish.
6.	“Mustaqil yurt farzandlari” oyligi	sentabr	Yangi o‘quv yilida Mustaqillik bayrami shiori ostida “Tantanali saflanish”, “Mustaqillik darslari” hamda pedagog xodimlar uchun “Ma‘naviyat soati”ni tashkil etish.	kichik guruh	“Xalqaro tinchlik kuni” munosabati bilan asfaltga rasm chizish tanlovini tashkil etish.
				o‘rta guruh	Mustaqillik bayrami shiori mavzusida videorolik tanlovini tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlar	1-sentabr – “Mustaqillik bayrami” tadbirlarini o‘tkazish. Ta‘lim muassasasi atrofidagi va mahallalardagi keksalar, yolg‘iz yashovchi keksalar hamda nuroniyalar pansionatida yashovchi keksalar uchrashuvlar uyushtirish.
7.	“Ustozga ehtirom” oyligi	oktabr	“Qadri baland, o‘zi ulug‘ ustozim!” shiori ostida 1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayramiga bag‘ishlab, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish; 21-oktyabr — O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun”ga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish.	kichik guruh	“Ustozimga extirom” ijodiy ishlar tanlovi.
				o‘rta guruh	“Mening sevimli ustozim” mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlar	“Ustozga extirom” hamda “Til-millat ko‘zgusi” mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy bayram tadbirlarini tashkil etish.



8.	"Bag'riken-glik" oyligi	noyabr	O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan tadbirlar tashkil etish; 16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan "Ma'rifat va millatlararo bag'rikenglik" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar haftaligini o'tkazish. Haftalik doirasida: Kichik guruh tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Mening bag'rikeng dunyoyim" mavzusidagi eng yaxshi rasmlar tanlovi; O'rta guruh tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Bag'rikenglik mening nazdimda" mavzusidagi eng yaxshi insholar tanlovi; Katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari o'rtasida milliy, kuy, raqs va qo'shiqlar, gala-konsertlar hamda milliy taomlar ko'rgazmalarini tashkil etish.	kichik guruh	O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kuni munosabati bilan rasmlar tanlovini o'tkazish.
				o'rta guruh	O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kuni munosabati bilan videoroliklar tanlovini o'tkazish. "Bag'rikenglik" oyligi doirasida "Mening bag'rikeng dunyoyim" mavzusida rasmlar tanlovini tashkil etish.
				katta va tayyorlov guruhlari	"Bayrog'imiz-g'ururimiz" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazish. "Bag'rikenglik" oyligi doirasida milliy liboslar ko'rgazmasi va milliy urf-odatlar festivalini tashkil etish.
9.	"Huquqiy savodxonlik" oyligi	dekabr	8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan "Bizning huquq va burchlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari"ni tashkil etish; "Davlat madhiyasini birga kuylaymiz" nomli savlanish tadbirlarini tashkil etish. Tarbiyalanuvchilarni yo'l xarakati qoidalariga o'rgatishga qaratilgan "Hayot xavsizligi - o'z qo'lingda" tadbirini tashkil etish. Yangi yil bayramini o'tkazish.	kichik guruh	O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan sinflar kesimida "Madhiyamni kuylayman" nomli savlanish tadbirlarini tashkil etish.
				o'rta guruh	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan "Bizning huquq va burchlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari" o'tkazish.
				katta va tayyorlov guruhlari	Tarbiyalanuvchilarni yo'l xarakati qoidalariga o'rgatishga qaratilgan "Hayot xavsizligi - o'z qo'lingda" tadbirini tashkil etish.

Mazkur strategiyada tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari quyidagicha berilgan: Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar - oilasi, ota-onasi, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi.

Asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi g'oyasi tarbiyaning yetakchi maqsadiga asos bo'lib keladi. Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi - uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonligini, ya'ni jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik, iqtisodiy, huquqiy qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Jumladan:

- Tarbiyalanuvchilarni dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishda ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- Tarbiyalanuvchilarni umuminsoniy va xalqimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan oshno qilish, ularda madaniy va ma'naviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malakalarini oshirish, ularni tobora boyitish, ma'naviy tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smirning, yigit va qizlarning bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish va inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlikning axloqiy me'yorlarini shakllantirish (mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, shafqatlilik,

irqiy va milliy kamsitishlariga toqatsizlik), muomala odobi, ziyolilik madaniyati kabi tarbiyaviy choralar (nohaqlik, yolg'ochilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash – shaxsning noyob qirralariga hurmat bilan qarash va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo'lida g'amxo'rlik qilish;

- vatanparvarlik - dunyoviy fikrlash, madaniyat arboblari bo'lgan alohida munosabat va uni o'rganish, o'z xalqi, davlati, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash. Yosh avlodni O'zbekiston Madhiyasi, Bayrog'i, Gerbi, Konstitutsiyasi va uning Prezidentiga sadoqatli qilib shakllantirish;

- eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash, mehnatga ijodiy yondashish tadbirlarini kuchaytirish, ijtimoiy maqsadlarga intilish kabi xislatlarni tarbiyalash, amaliy munosabatlar - tadbirkorlik, to'g'riso'zlik va mas'uliyat hissini tarbiyalash;

- sog'lom turmush tarzi uchun intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lishga tayyorgarlik ko'rish. O'zining har bir xatti-harakatiga va uning oqibatiga mas'uliyat bilan qarash xislatlarini tarbiyalash uchun sharoit hozirlash.

- insonning atrof-muhitga ta'siri, kishilar bilan o'zaro munosabatlarida yuqoridagilarga amal qilish ruhida tarbiyalash;

- mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri, xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratik va boshqa davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik, betaraflik, oshkora-ochiq tashqi siyosati va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, uni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushunmoq va tushuntirmoq kerak.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagilar bo'lishi lozim:

- tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o'g'il-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e'tiborda tutilishi;

- milliylikning o'ziga xos an'alariga tayanish. Lekin tarbiyaning milliy "bunyodkorligi" yosh avlodning ko'pmillatli va jahon madaniyati boyliklariga qiziqishlarini, intilishlarini inkor qilmaslik;

- tarbiyalanuvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish. Bola, o'smir, yigit va qizlar ta'lim dargohida tahsil olayotgan chog'ida nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar. Ta'lim tashkilotlarida bolalar yosh jihatlariga mos zarur, qiziqarli, to'laqonli hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijtimoiy-ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimki, natijada o'quvchilar ko'ngillari tusagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o'zlariga ishonchlari ortsishi, axloqlari barqaror bo'lishlarini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning davlat siyosatidagi ahamiyati, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit yaratish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish, yoshlarni ma'naviy boy va barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu jarayonda davlat rahbariyati tomonidan ma'naviyat va ma'rifat sohasiga qaratilgan e'tibor, xalqimizning ma'naviy merosini asrab-avaylash, yoshlarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar mamlakat taraqqiyotining muhim asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, xalqimizning boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlar va an'analarni yoshlar ongiga singdirish orqali ular orasida ijtimoiy muammolar, yot g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurashish imkoniyati kuchaymoqda. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarda tanqidiy fikrlash, ma'naviy mustaqillik va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday tadbirlar aholining barcha qatlamlariga mo'ljallangan bo'lib, ularni Vatan, xalq va jamiyat oldidagi burchlarini chuqur anglashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish. Sh.To'rayev va boshqalar. – Toshkent: "MERIT PRINT", 2023.
2. Samandarova G.A. – Tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish strategiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: "ILM-MA'RIFAT" nashriyoti, 2024-y.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi "Ilk qadam"/takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022.
4. Matchanov B.O. – Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish. O'quv qo'llanma. – "Lesson press" nashriyoti, 2024-y.

**Internet manbalari**

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5344692>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.07.2024-yildagi PF-98-son. <https://lex.uz/docs/-6994138>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

